

капитализацияси кўрсаткичидан фаол фойдаланишидир. Компанияларнинг ўсиши ва ривожланиши истиқболларини, шунингдек, уларнинг бозор капитализациясини кўрсатадиган мунтазам таҳлилий тадқиқотлар ўтказиш керак.

Шунингдек, инвесторларнинг қизиқишини ошириш учун бозор капитализацияси юқори бўлган компанияларга инвестиция киритишнинг афзалликлари тўғрисида ахборот компанияларини таклиф қилиш мумкин. Аҳолининг молиявий саводхонлигини ошириш ва инвестиция таълимотини ривожлан-

тириш бўйича саъй-ҳаракатларни кучайтириш зарур, шунда одамлар қимматли қоғозлар бозорига инвестиция киритишнинг афзалликларидан кўпроқ хабардор бўлади.

Шундай қилиб, компанияларнинг бозор капитализацияси инвесторларнинг қизиқишларига таъсир этувчи муҳим ва долзарб кўрсаткич ҳисобланади. Ушбу кўрсаткичдан фойдаланишни кенгайтириш ва ахборот компаниялари ўтказиш Ўзбекистон фонд бозорига инвесторлар фаоллигини оширишга хизмат қилиши мумкин.

Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Шомиров А.А. Акциядорлик жамиятлари молиявий ресурсларини бошқариш самарадорлигини ошириш йўллари. Монография. – Т.: Иқтисод-молия, 2020. – 121 б.
2. Ендовицкий Д.А. Анализ инвестиционной привлекательности организации. Научное издание. / Д.А.Ендовицкий. – М.: КНОРУС, 2019. – 374 с.
3. Ивашковская И.В., Григорьева С. Корпоративные финансовые решения. Эмпирический анализ российских компаний (корпоративные финансовые решения на развивающихся рынках капитала). Монография. – М.: ИНФРА-М, 2022. – 281 с.
4. Кидовская А.Д. Роль рыночной капитализации в оценке инвестиционной привлекательности компании. / А.Д.Кидовская. Текст: непосредственный. // Молодой ученый. 2021. № 52 (238). С. 110-113.
5. Лисицына Е.В. Финансовый менеджмент. Учебник. / Е.В.Лисицына, Т.В.Ващенко, М.В.Забродина; Под ред. К.В.Екимова. – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2019. – 184 с.
6. Лысенко Д.В. Финансовый менеджмент. Учебное пособие. / Д.В.Лысенко. – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2023. -372 с.
7. Малова Т.А. Капитализация в условиях российской экономики. Теоретические и практические аспекты. – М.: УРСС, 2019. С. 23.
8. Сирота Л.В. Капитализация как индикатор эффективного развития корпорации. // Российское предпринимательство. 2020. Том 11. № 9. С. 40-45.
9. Федорович Т. В. Финансовая отчетность как индикатор инвестиционной привлекательности корпорации. // Экономический анализ: теория и практика. 2022. № 12 (117). С. 32.
10. Чупанова Х.А. Взаимосвязь рыночной капитализации с показателями стоимости высокотехнологичных компании. // Экономика, предпринимательство и право. 2019. Том 9. № 3. С. 191-206.
11. Sierra Murry, Ryan Eichler Biggest Companies in the World by Market Cap. – URL: <https://www.investopedia.com/biggest-companies-in-the-world-by-market-cap-5212784>
12. Samanta Silberstein, Pete Rathburn Market Capitalization: What It Means for Investors. – URL: <https://www.investopedia.com/terms/m/marketcapitalization.asp>
13. Suzanne Kvilhaug, Gordon Scott Market Capitalization: What It Is, Formula for Calculating It. – URL: <https://www.investopedia.com/investing/market-capitalization-defined/>
14. Мухамедов Ф.Т. Ўзбекистонда қимматли қоғозлар бозори савдо тизимларини ривожлантириш йўналишлари: Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) дисс. автореферати. – Т., 2019. – 28 б.



KORXONALARNING SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH TAHLILI

Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
mustaqil izlanuvchisi, i.f.f.d. PhD

https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a21

Аннотация. Mazkur maqolada soliqlarning davlat iqtisodiyotidagi ahamiyati tadqiq qilingan hamda bugungi kunda mamlakatda soliq qarzdorligini qisqartirish dolzarb masalalardan biri ekanligi asoslangan. Soliq qarzdorligini kamaytirish bo'yicha xorijiy iqtisodchi olimlarning fikr va mulohazalari o'rganilgan. Yuridik shaxs bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining soliq qarzdorligi summasi tahlil qilingan. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, mamlakatimizda soliq qarzdorligini qisqartirish, shu jumladan, uni samarali undirish amaliyotini takomillashtirish borasida taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Калит со'злар: soliq organi, soliq to'lovchilar, yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, soliq yuki, soliqlar va yig'imlar, soliq qarzdorligi, davlat, budjet.

АНАЛИЗ ПОВЫШЕНИЯ СБОРА НАЛОГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ

Хакимов Улугбек Фуркат угли

Независимый исследователь Ташкентского
международного университета Кимё,

Доктор философии (PhD) по экономическим наукам

Аннотация. В данной статье рассматривается значение налогов в экономике государства и он основан на том, что на сегодняшний день сокращение налоговой задолженности в стране является одним из актуальных вопросов. Изучены мнения и комментарии зарубежных экономистов о снижении налоговой задолженности. Проанализирована сумма налоговой задолженности хозяйствующих субъектов, являющихся юридическими лицами. На основании вышеизложенных обстоятельств сформулированы предложения и рекомендации по сокращению налоговой задолженности в нашей стране, в том числе по совершенствованию практики ее эффективного взыскания.

Ключевые слова: налоговый орган, налогоплательщики, юридические лица, индивидуальные предприниматели, налоговое бремя, налоги и сборы, налоговая задолженность, государство, бюджет.

ANALYSIS OF IMPROVING TAX DEBT COLLECTION OF ENTERPRISES

Khakimov Ulugbek Furkat ugli

Independent researcher of Kimyo international university in Tashkent,

Doctor of philosophy (PhD) in economical sciences

Abstract. This article examines the importance of taxes in the state economy and today, it is based on the fact that the reduction of tax debt in the country is one of the urgent issues. The opinions and comments of foreign economists on reducing tax debt were studied. Tax debts of legal entities, including individual entrepreneurs are analyzed. Based on the above-mentioned circumstances, proposals and recommendations have been formulated to reduce tax debt in our country, including improving the practice of its effective collection.

Key words: Tax authority, tax payers, legal entities, individual entrepreneurs, tax burden, taxes and fees, tax debt, state, budget.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda chuqur iqtisodiy va siyosiy inqirozlar va ziddiyatlar mam-lakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, budjet soliq siyosatini takomillashtirish, tadbir-korlik faoliyatini, shu jumladan, soliq munosabat-larida aholi daromadlarini soliqqa tortishda pa-saytirilgan stavkalarini qo'llash orqali rag'batlantirish hamda ularga barcha qulay shart-sharoitlarni yaratish zaruratini tug'dirmoqda.

Shu bilan birga, 2023-yildan boshlab, hu-dudlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, tuman va shaharlarni ularning sharoiti, salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib rivojlan-tirish bo'yicha yangicha yondashuvlarni joriy etish, shuningdek, tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, davlat ko'magini berish tartibini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida respublika tuman va shaharlari beshta toifaga ajratildi hamda ular uchun soliq stavkalari tadbirkorlik subyekti joylashgan joyiga qarab, har xil turdagi soliq stavkalari to'lanishi belgilandi [1]. Bu esa rivojlanish darajasi har xil bo'lgan hudud-lardagi tadbirkorlarga yana bir imkoniyat va ko'mak hisoblanadi. Shuningdek, soliqlarni o'z vaqtida to'lab, qonunchilik talablariga amal qilgan

holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish va ularni rag'batlantirish maqsadida tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratgan holda ularga soliq imtiyozlari va preferensiyalarini berish yo'lga qo'yildi [2]. Bundan tashqari insofli soliq to'lovchilarni rag'batlantirish bilan bir qatorda soliqlardan qochish va uni har xil g'ayriqonuniy yo'llar orqali to'lashdan bo'yin tovlash holatlariga barham berish bugungi kunning muammolaridan biridir. Bu mamlakat uchun maqbul shart-sharoit-larda jismoniy va yuridik shaxslarning soliq qarzdorligini undirishni takomillashtirish masalasi o'zining samarali yechimiga muhtoj ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, shu jumladan, soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzdorlik summalarini qisqartirishning ayrim masalalari qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Xusu-san, mazkur masala bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan xorijlik olim Michael Brostek esa o'z tadqi-qotida soliq qarzi undirilishining samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi omillarini ko'rsatib o'tadi, xususan:

– mamlakatda soliq qarzi summalarining paydo bo'lishiga yo'l qo'yishning oldini olishda soliq yukini pasaytirish kelajakda soliq qarz-dorliklari kamayishiga olib keladi;

– muddatida to'lanmagan soliqlar va yig'implarni undirish strategiyasi faqat belgilangan davr mobaynida o'z ijobiy natijasini beradi [3].

Bu borada rus tadqiqotchilari S.N.Alixin va D.A.Levacheva o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida soliq qarzini undirish mexanizmining nazariy asoslarini keltirib o'tishgan. Unga ko'ra, ular soliq qarzini undirish soliq bazasini kengaytirish bilan birgalikda uni soliq to'lovchidan undirish murakabligini ta'kidlab, bu jarayonga alohida yondashuvni inobatga olgan holda, soliq qarzi mavjud bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy holatidan kelib chiqib, undirish mexanizmini ishlab chiqish kerakligini ta'kidlashgan [4].

Xorijlik olim V.Morozning fikriga ko'ra, «Soliq to'lovchilarning soliqlar va soliq qarzini bir xil mazmunda tushunishi chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Hech qachon sud yoki soliq organi soliqlarni undirmaydi. Faqatgina soliq qarzi, penya hamda moliyaviy sanksiyalar undirishni talab etadi. Hattoki, soliq qarzi ham undirilmay, balki ixtiyoriy ravishda to'lanishi mumkin. Aynan shu xulosa soliq qonunchiligida belgilab qo'yilsa va buning natijasida fuqarolarning huquqiy ongida ham aks etsa, soliq to'lovchilar uchun soliqlar «erkinlik» belgisi sifatida ham namoyon bo'ladi» [5].

Bundan tashqari I.G.Vinoxodova ham o'zining ilmiy ishida soliq qarzlarini undirishda soliq qarzi mavjud xo'jalik yurituvchi subyektlardan mol-mulklarini xatlash jarayonini ko'paytirish samarali natija berishini aytib o'tadi [6].

Mahalliy iqtisodchi olimlarimiz A.Tangriqulov va Sh.Toshmatov fikricha, soliq qarzlarining nazariy jihatdan vujudga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

– o'zaro moliya-xo'jalik munosabatlarida bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to'lov intizomiga rioya qilmaslik va buning oqibatida debitorlik, kreditorlik qarzlarining oshib ketishi;

– moliya-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish va bu faoliyatni noto'g'ri boshqarish;

– xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulotiga (bajarilgan ish va xizmatlarga) iste'mol talabining keskin o'zgarishi;

– ishlab chiqarilgan mahsulotning (bajarilgan ish va xizmatlarga) sifati buyurtmachining yoki bozor talabiga javob bermasligi [7].

Shuningdek, I.Niyazmetovning ta'kidlashicha, soliq qarzi yuzaga kelishi QQS va mulkiy soliqlar yukining, asosan, sanoat korxonalari


zimmasiga yuklatilganligi, soliq yukining notekis joylashuvi, sanoat korxonalari soliq yukining nisbatan og'ir bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa korxonalarda soliq qarzi muammosini tugatishga yo'l bermaydi. Soliq qarzlarining katta qismi umumbelgilangan soliqlar kesimiga to'g'ri keladi. Bu esa soliq yukining umumbelgilangan tartibda soliq to'lovchi korxonalar moliyaviy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan darajada og'irligidan dalolat beradi [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik kuzatish, statistik grafiklardan foydalanilgan holda qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari soliq ma'murchiligini, xususan, soliq qarz-dorligini qisqartirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi (asosiy qism). Respublikamizda soliqlar davlat iqtisodiyotining asosiy tayanchi hisoblanadi. Soliqlarning o'z vaqtida va to'liq hajmda undirilishi har bir mamlakatning iqtisodiyoti barqaror rivojlanishi bilan birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy hamda mudofaa qudratining oshishini ham ta'minlaydi. Shuningdek, budjetga hisoblangan soliqlarning undirilishi respublika va mahalliy hokimiyat organlari zimmasidagi ichki va tashqi majburiyatlarning bajarilishida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli soliq to'lovchilarning soliq qarzlarini bartaraf etish yo'llarini takomillashtirishga e'tibor berish soliq organlarining muhim vazifasi sifatida belgilab qo'yilgan. Mustaqillik yillarida soliq tizimi tez sur'atlarda rivojlanib, har qanday rivojlangan mamlakat soliq tizimi bilan raqobatlasha oladigan darajaga yetmoqda. Yalpi ichki mahsulotdagi soliq yuki boshqa rivojlangan davlatlarga nisbatan ancha pastligi fikrimizning yorqin dalilidir [9].

Mamlakatimizda soliqlar va yig'implar stavkalarining pasaytirilishi va ularni undirish mexanizmlarining takomillashishi amaldagi soliq yukining kamayishiga va budjetga to'lovlarning vaqtda kelib tushishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. E'tiborli jihati shundaki, tahlil qilinayotgan davrlarda soliq stavkalarining bir necha foizga pasaytirilishi soliqlar bo'yicha davlat budjetiga daromadlarini kamaytirmadi. Aksincha, soliq tushumlari yildan yilga oshishi kuzatilmoqda. Bu soliq yukining pasayishi bilan iqtisodiyotning barqaror rivojlanayotganligidan darak beradi. Qolaversa, buni davlat budjetining daromadlar qismini to'ldirishda soliqlar asosiy manba bo'lib qolayotganidan ham bilish mumkin.

2017-2022-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadidagi soliq tushumlarining ulushini quyidagi 1-rasmda ko'rishimiz mumkin:



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadidagi soliq tushumlarining ulushi tahlili (trln. so'mda) [10]


Yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, davlat budjeti daromadlarining asosiy qismini soliqlar tashkil etmoqda. Xususan, davlat budjetida soliq tushumlarining ulushi 2017-yilda 89,1 foizni, 2018-yilda 87,6 foizni, 2019-yilda 85,2 foizni, 2020-yilda 82,3 foizni, 2021-yil 81,0 foizni va 2022-yil 79,1 foizni tashkil qilgan. 2017-yili soliqlar davlat budjeti daromadlarining 89,1 foizini shakllantirgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 79,1 foizni tashkil qilib, 2017-yilga nisbatan soliqlarning ulushi 10 foizga kamaygan. Oxirgi 6 yillikda davlat budjeti daromadlaridagi soliq tushumlarining o'rtacha ulushi 84,0 foizga teng. Muallif fikricha, yildan yilga davlat budjeti daromadlaridagi soliq tushumlarining ulushi pasayib borayotganligi, shu bilan birgalikda, davlat daromadlarining boshqa tushumlar hisobiga oshib borishi ijobiy holat sanaladi. Sababi, davlat budjeti faqat bir yo'nalish (bizning holatda faqat soliq tushumlari)ga qaram bo'lishi, kelgusida mamlakat iqtisodiyotida salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

So'nggi yillarda mamlakatimizda raqobatbardosh mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarilishini rag'batlantirish, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida erkin raqobat muhitini qo'llab-quvvatlash va ular uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan soliq tizimini joriy qilishga qaratilgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada hukumatimiz tomonidan soliq yukini kamaytirish, soliq turlarini unifikatsiya qilish, soliqlar va yig'ımlarni hisoblab chiqarish hamda soliq organiga soliq hisobotlarini taqdim etish tartibini soddalashtirish, shuningdek, soliq stavkalarini optimallashtirishga ham alohida e'tibor berildi. Ammo amaliyotda soliq to'lovchilar, xususan, bizning holatimizda aynan tadbirkorlik subyektlari tomonidan har xil noqonuniy

yo'llar (sxema) orqali soliqlarni qasddan to'lamaslik yoki soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlari ham uchraydi. Ushbu to'lanmagan summa, soliq qonunchiligiga binoan, soliq qarzdorligi hisoblanib, soliq organlari tomonidan majburiy undirishga qaratiladi. Quyida ushbu soliq to'lovchilarning 2017-2022-yildagi tahlilini ko'rib chiqamiz.

Ushbu 2-rasm ma'lumotlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, soliq qarzigaga ega bo'lgan yuridik shaxslar soni o'sish tendensiyasiga ega. 2017-yilda soliq qarzigaga ega bo'lgan yuridik shaxslar soni jami yuridik shaxslar sonining 15,6 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda ushbu ko'rsatkich 25,4 foizgacha ko'tarilgan. Buning sababini o'sha davrda pandemiya bilan bog'liq muammolar tufayli yuzaga kelgan, deb izohlashimiz mumkin. 2022-yilga kelib esa soliq qarzigaga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari sonining jami subyektlar soniga nisbatan ulushi 27,8 foizgacha oshgan. Oxirgi 6 yilda soliq qarzigaga ega bo'lgan yuridik shaxslar sonining o'sish sur'ati o'rtacha 21 foizga teng. Shuningdek, 2017-yilda jami soliq qarzi summasi 4 239,0 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 21 510,2 mlrd. so'm bo'lgan, ya'ni 2017-yilga nisbatan soliq qarzdorligi qariyb 4 baravar, ya'ni 17 271,2 mlrd. so'mga oshgan. So'nggi 6 yilda yuridik shaxslar soliq qarzi summasining o'sish sur'ati o'rtacha 15 foizni tashkil etmoqda.

Soliq qarzining ortishiga yana bir sabab, soliq organi tomonidan kontragenti soliq to'lamaslik xavfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilarga nisbatan soliq tekshiruvlari o'tkazilishi va buning natijasida qo'shimcha soliqlar hisoblanishi hamda moliyaviy sanksiyalar qo'llanilishi oqibatida yuzaga kelgan, deb hisoblaymiz.



2-rasm. Respublika bo'yicha soliq qarzigaga ega yuridik shaxslar soni tahlili [11]

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, so'nggi yillarda hukumati-miz tomonidan soliq yuki pasaytirilishi, soliq stavkalarining optimallashtirilishi, tadbirkorlik subyektlariga o'zlarining faoliyatlarini olib borishda qator yengillik va keng imkoniyat yaratilib kelinmoqda. Ammo shunga qaramay, soliq qarzdorligi mavjud bo'lgan soliq to'lovchilarimiz soni yildan yilga oshib bormoqda. Muallif fikricha, soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzdorlikni kamaytirish ularni muddatida va to'liq undirish samaradorligini oshirishda ilg'or xorij tajribalariga tayangan holda quyidagi takliflar o'z samarasini beradi:

– deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda soliq to'lovchida soliq qarzdorligi yuzaga kelganidan keyin har bir kechiktirilgan kun uchun penya hisoblash bilan birgalikda to'lov intizomini buzganlik uchun moliyaviy jarimalar qo'llaniladi.

Muallif fikricha, mazkur amaliyotning soliq tizimimizda joriy etilishi soliq to'lovchilarning soliq bo'yicha majburiyatlarini o'z muddatida bajarish mas'uliyatini oshiradi hamda budjetga soliqlar o'z vaqtida va to'liq hajmda tushishini ta'minlaydi;

– Fransiya davlati tajribasi asosida mamlakatimiz soliq tizimida soliq qarzdorligini majburiy undiruv choralarini qo'llash orqali undirishdan oldin uning paydo bo'lish sababini o'rganish lozim. Agar soliq to'lovchi tomonidan soliqlar va yig'imlardan qarzdorlik summasi qasddan vujudga keltirilgan bo'lsa, unga nisbatan keskin choralar, ya'ni penya (foiz) va jarimalarni oshirilgan stavkada qo'llash tartibining joriy etilishi kelgusida soliq qarzdorligining ulushini pasaytirishda va soliq to'lovchilarda to'lov intizomini oshirishda ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [12].

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-39-sonli qarori.
3. Michael Brostek. Tax debt collection IRS needs to better manage the collection notices sent to individuals. // United States government Accountability office. 2009. P. 27.
4. Алихин С.Н., Левачева Д.А. Эволюция механизма принудительного взыскания задолженности перед бюджетом. // *Налоги*. 2018. С. 28.
5. Мороз В.В. Налоговое администрирование задолженности организаций по налогам и сборам: проблемы взыскания. Дис. канд. экон. наук. – М., 2011 г.
6. Виноходова И.Г. Совершенствование практики взыскания задолженности организаций по налогам и сборам. // *Научное статья*. 2019 г. С. 22.
7. Tangriqulov A., Xomma A., Toshmatov Sh., Norqo'ziyev I., Roziqov N. Soliq qarzi va uni undirish. O'quv qo'llanma. – T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2010 (51-b).
8. Niyazmetov I. Soliq yukining tadbirkorlik subyektlari moliyaviy faoliyatiga va budjet daromadlariga ta'siri tahlili. Nomzodlik ishi. Avtoreferat, 2008-yil.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi "Ochiq budjet" portali ma'lumotlari. <https://openbudget.uz/incomes>.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari. <http://www.soliq.uz>
12. <https://theonestoproblemshop.com> – sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.